



ISSN: 2181-9416

1-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

1-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 1

LAWYER HERALD

ISSUE 1

KALIMBETOV Nesip Abdullayevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi
Taxiatosh tumani adliya bo'limi boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini oshirish
instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: kalimbetovnesip@gmail.com

O'ZBEKISTONDA DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM KO'RSATISH TIZIMINI BOSHQARISHNING MA'MURIY-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): KALIMBETOV N.A. O'zbekistonda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini boshqarishning ma'muriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 8-15.

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida kafolatlangan malakali yuridik yordam olish huquqini amalga oshirishning zamonaviy ma'muriy-huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Muallif davlat hisobidan bepul yuridik yordam (keyingi o'rinlarda BHYo) ko'rsatish institutining tarixiy evolyutsiyasi va xorijiy (MDH, G'arb) nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilgan holda, milliy qonunchilikdagi so'nggi raqamli islohotlarni chuqur o'rgangan.

Asosiy e'tibor 2023-yilgi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2024-yilgi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 774-sonli qarori bilan joriy etilgan "Yuridik yordam" axborot tizimining amaliy samaradorligiga qaratilgan. Maqolada raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelgan dolzarb tizimli muammolar: "hududiylik" prinsipidagi logistik xatoliklar, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga bog'liq byurokratik to'lov to'siqlari hamda korrupsiyaviy xavf hisoblangan "cho'ntak advokatlari" (pocket lawyers) muammosining yangi shaklga transformatsiya qilinganligi keskin tanqidiy (polemik) ruhda tahlil qilingan.

Tahlil natijalariga ko'ra, BHYo tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, advokatlarni avtomatik taqsimlashda "Smart-taqsimlash" (geolokatsiya va yuklama balansi) algoritmini integratsiya qilish hamda to'lov tizimida "Subsidiary to'lov kafolati" (protsessual qarorning ustuvorligi) institutini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur takliflar mamlakatda odil sudlovga erishishning konstitutsiyaviy kafolatlarini real ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: davlat hisobidan bepul yuridik yordam (BHYo), ma'muriy-huquqiy mexanizm, raqamli transformatsiya, "Yuridik yordam" axborot tizimi, ijtimoiy davlat, advokatura, Zero Bureaucracy (inson omilisiz boshqaruv), korrupsiyaga qarshi kurash, avtomatik tanlov, huquqiy himoya.

КАЛИМБЕТОВ Несип Абдуллаевич

Начальник отдела юстиции Тахиаташского района
Министерства юстиции Республики Каракалпакстан,
Самостоятельный соискатель Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан
E-mail: kalimbetovnesip@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ОКАЗАНИЯ ЮРИДИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ЗА СЧЕТ ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье исследуются современные административно-правовые механизмы реализации права на получение квалифицированной юридической помощи, гарантированного статьёй 29 Конституции Республики Узбекистан. На основе сравнительный анализ исторической эволюции института бесплатной юридической помощи за счёт государства (далее — БЮП) и зарубежных (СНГ, западных) теоретических подходов, всесторонне изучены последние цифровые реформы в национальном законодательстве.

Основное внимание уделено практической эффективности информационной системы «Об оказании юридической помощи за счет государства», внедрённой Законом Республики Узбекистан от 2023 года «Об утверждении положения о порядке привлечения и оплаты труда адвокатов, оказывающих юридическую помощь за счет государства» и постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 774 от 2024 года «Об утверждении Положения о порядке привлечения адвокатов для оказания юридической помощи за счёт государства и оплаты их труда». В статье в критическом (полемиическом) духе проанализированы актуальные системные проблемы, возникшие в процессе цифровизации: логистические ошибки в принципе «территориальности», бюрократические барьеры при оплате, связанные с «Единым реестром социальной защиты», а также трансформация коррупционного риска – проблемы «карманных адвокатов» (pocket lawyers) в новую форму.

По результатам анализа разработаны конкретные научно-практические предложения по совершенствованию системы БЮП. В частности, обоснована необходимость интеграции алгоритма «Smart-распределения» (геолокация и баланс нагрузки) при автоматическом назначении адвокатов, а также внедрения института «Субсидиарной гарантии оплаты» (приоритет процессуального решения) в системе платежей. Данные предложения служат реальному конституционных гарантий достижения правосудия в стране.

Ключевые слова: Юридическая помощь за счет государства (БЮП), административно-правовой механизм, цифровая трансформация, информационная система «Юридическая помощь», социальное государство, адвокатура, Zero Bureaucrasy (управление без человеческого фактора), борьба с коррупцией, автоматический выбор, правовая защита.

NESIP Kalimbetov Abdullaevich

Head of the Justice Department of Takhiatash District
of the Ministry of Justice of the Republic of Karakalpakstan,
Independent applicant of the Training institute
for lawyers under the Ministry of Justice of
the Republic of Uzbekistan
E-mail: kalimbetovnesip@gmail.com

IMPROVEMENT OF ADMINISTRATIVE AND LEGAL MECHANISMS FOR MANAGING THE SYSTEM OF STATE-FUNDED LEGAL AID IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This scientific article examines modern administrative and legal mechanisms for the implementation of the right to receive qualified legal assistance guaranteed by Article 29 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Through a comparative analysis of the historical evolution of the institution of state-funded free legal aid (hereinafter referred to as SFLA) and foreign theoretical approaches (CIS and Western models), the author conducts an in-depth study of recent digital reforms in national legislation.

The main focus of the research is on the practical effectiveness of the "On the provision of legal aid at the expense of the state" information system introduced by the 2023 Law of the Republic of Uzbekistan "On approval of the regulation on the procedure for engaging and remunerating lawyers providing legal assistance at the expense of the government" and the 2024 Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 774 "On Approval of the Regulation on the Procedure for Engaging Lawyers to Provide State-Funded Legal Aid and Remunerating Their Services". The article analyzes, in a critically sharp (polemical) spirit, urgent systemic problems arising during digitalization: logistical errors in the "territoriality" principle, bureaucratic payment barriers linked to the Single Registry of Social Protection, and the transformation of the corruption risk known as "pocket lawyers" into a new form.

Based on the analysis results, concrete scientific and practical proposals for improving the SFLA system have been developed. In particular, the necessity of integrating a "Smart allocation" algorithm (geolocation and load balance) for the automatic assignment of lawyers, as well as introducing the institute of "Subsidiary payment guarantee" (priority of the procedural decision) in the payment system, is substantiated. These proposals serve to genuinely ensure the constitutional guarantees of achieving justice in the country.

Keywords: State-funded legal aid (SLA), administrative-legal mechanism, digital transformation, "Legal Aid" information system, social state, advocacy, Zero Bureaucracy, anti-corruption, automatic selection, legal protection, access to justice.

Huquqiy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish tizimini talab qiladi. Davlat huquqi va boshqaruvi nuqtai nazaridan, davlat hisobidan bepul huquqiy yordamni ta'minlash davlatning o'z fuqarolari oldidagi konstitutsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarini bajarish sifatini belgilaydi. BHYo tizimining samaradorligi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida [1] belgilangan huquqni amalda ta'minlashdagi davlat-boshqaruv mexanizmining muhim elementidir.

Konstitutsiyaviy kafolatlangan malakali huquqiy yordam olish huquqining amalga oshirilishi ko'p jihatdan davlat hisobidan bepul huquqiy yordam (BHYo) tizimining samaradorligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi har bir shaxsga malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi [1]. BHYo faqat jinoiy sud jarayonlari bilan chegaralanmay, balki ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga huquqiy tenglikni ta'minlovchi muhim mexanizmdir.

Maqolaning asosiy maqsadi BHYoning konstitutsiyaviy kafolatlarni ta'minlashdagi davlat-

boshqaruv mexanizmi sifatidagi o'rnini tahlil qilish, uning tarixiy boshqaruv shakllarini davrlashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Shunday ekan, davlat huquqi va boshqaruvi nuqtai nazaridan Bepul huquqiy yordam institutining ilk shart-sharoitlari va tarixiy ibtidosi, jahon huquq tarixidagi ilk elementlari haqida qisqacha to'xtalsak.

BHYoning ilk shakllari Qadimgi Rim huquqidagi proletariatni himoya qilish amaliyotiga borib taqaladi. Sharq sivilizatsiyasida esa musulmon huquqining "vaqf" tizimi jamoat hisobidan huquqiy ko'mak berishning o'ziga xos modelini yaratgan. G'arbda 1495-yildagi Angliyaning Pauper's oath [2] hujjati bu sohani ilk bor qonunchilik darajasiga olib chiqdi.

XX asr boshlari va sobiq ittifoq (Sovet) davridagi huquq tizimida BHYo markazlashgan va siyosilashtirilgan tus oldi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tor doiradagi yordam sifatida shakllandi. Asosan yuridik xizmat ko'rsatish va advokaturaning asosiy vazifasi kambag'allar va mehnatkashlar huquqlarini himoya qilishdan iboratligi bilan ajralib turgan Bepul huquqiy yordam, asosan **Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)** normalari doirasida, ya'ni majburiy himoya talab qilingan holatlardagina ko'rsatilgan va ijtimoiy xizmat sifatidagi mohiyatini yo'qotgan edi. Huquqshunos X.S.Fayziyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, ushbu davrda yuriskonsultlar va advokatlar faoliyati davlat organi faoliyati bilan uzviy bog'lanmagan, yuridik xizmat ko'rsatish ko'lami esa o'ta tor bo'lgan [3] deb ta'kidlaydi.

BHYo tizimining ma'muriy-huquqiy tabiati va uni boshqarish modellari zamonaviy yuridik fanda jiddiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xususan, MDH davlatlari olimlarining qarashlarida BHYoni tashkil etishda davlat va advokaturaning roli borasida konseptual farqlar kuzatiladi.

V.Turanin va boshqalar Rossiya tajribasini tahlil qilar ekan, BHYoni tashkil etishda "huquqiy noaniqlik" mavjudligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, BHYo tizimida advokat va davlat organlari (tergov, sud) o'rtasidagi munosabatlar vertikal va subordinatsion xarakterda bo'lib, bu advokat mustaqilligiga putur etkazadi. Bunga yechim sifatida mualliflar davlat va advokatura o'rtasida "ommaviy-huquqiy shartnoma" (bazis kelishuvi) tuzish modelini ilgari suradilar [4].

Biroq, K.Xakimova ushbu masalaga inson huquqlari va xalqaro standartlar prizmasidan yondashib, BHYoni davlatning konstitutsiyaviy majburiyati va odil sudlovga erishishning fundamental kafolati deb hisoblaydi. Olimaning pozitsiyasiga ko'ra, BHYo tizimining samaradorligi faqat shartnomaviy munosabatlar bilan emas, balki **"advokatlik siri"** va mijozning advokatga bo'lgan ishonchi saqlanishi bilan belgilanadi [5].

Bizning fikrimizcha esa, BHYo tizimi nafaqat protsessual zarurat, balki raqamli davlat xizmatining bir turi sifatida qayta talqin qilinishi lozim. V.Turanin tomonidan qayd etilgan byurokratik to'siqlar va K.Xakimova ta'kidlagan ishonch muammosi O'zbekistonda joriy etilayotgan ijtimoiy davlat tamoyili asosida hal etilishi mumkin.

Shuningdek, O.Yashina AQSh va Rossiya tajribasini qiyoslab, BHYo tizimining samaradorligini oshirishda "Probono" (jamiyat manfaati uchun bepul ixtiyoriy yordam) va maxsus "muvofiglashtiruvchi markazlar" rolini alohida ko'rsatadi. Uning fikricha, davlat resurslari doim ham cheklangan bo'lib, xususi yuridik firmalarni BHYoga rag'batlantirish (masalan, ijara imtiyozlari orqali) zarur [6]. Ushbu qarashga zid ravishda, S.Baxorina Belarus tajribasida yuridik klinikalarning (talabalar tomonidan ko'rsatiladigan yordam) rolini yuqori baholaydi, lekin ularning huquqiy maqomi va vakolatlari aniq belgilanmaganligini tizimning zaif tomoni sifatida qayd etadi [7]. V.Bugrova va L.Saburova esa aholining BHYo tizimi haqida xabardorligi pastligini asosiy muammo sifatida ko'rsatib, davlat tomonidan informatlashtirish ishlarini kuchaytirishni talab qiladilar [8].

V.Redkous MDH davlatlari qonunchiligini tahlil qilib, tizimni takomillashtirishda "innovatsion shakllardan" foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Biz ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda,

raqamli transformatsiya BHYo tizimidagi korrupsiyaviy xavflarni va **“cho‘ntak advokatlari” (pocket lawyers)** muammosini bartaraf etuvchi asosiy omil ekanligini ta’kidlaymiz.

O‘zbekistonda bepul huquqiy yordam (BHYo) tizimining evolyutsiyasi xalqaro huquqiy standartlar, xususan, **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning (1966-y.) 14-moddasi** ta’sirida shakllandi [10]. Ushbu jarayonda BHYo oddiy protsessual zaruratdan insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqi darajasiga ko‘tarildi. Bu tizim birdaniga shakllanib qolmagan, balki mamlakatning huquqiy va ijtimoiy islohotlariga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlangan. Shu o‘rinda, fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida BHYo tizimining evolyutsiyasini **uchta muhim bosqichga** bo‘lishni taklif etiladi:

Davlatimizda BHYoning rivojlanishini birinchi davriga Mustaqillikning dastlabki bosqichi Poydevor bosqichi (1991–2000-yillar). Ushbu davr huquqiy tizimning shakllanishi va inson huquqlarini konstitutsiyaviy kafolatlash bilan belgilanadi, konstitutsiyaviy normaga asos ayblanuvchiga dastlabki tergov va sudga himoyalani shu huquqi kafolatlandi. Agar ayblanuvchi himoyachi olish imkoniga ega bo‘lmasa, uni davlat ta‘minlashi kerak edi. Bu davrda BHYo amalda deyarli faqat jinoyat ishlarida, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining huquqiy himoyaga muhtojligi sharoitidagina amalga oshirilgan. Fuqarolik va ma’muriy ishlarda tizimli BHYo mavjud emas edi.

BHYoning rivojlanishining ikkinchi bosqichi (2001–2017-yy.). Bunda asosan advokatura institutining rasmiylashtirilishi va davlat hisobidan tayinlangan advokatlar mehnatini kompensatsiya qilish mexanizmining joriy etilishi bilan ifodalanadi. BHYo faqat muayyan imtiyozli toifalar (urush qatnashchilari, nogironligi bor shaxslar) uchun va asosan maslahat berish shaklida amal qilgan. Davlat tomonidan to‘lanadigan gonorarlarning pastligi va to‘lov mexanizmining murakkabligi advokatlar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Tizimning uchinchi bosqichi 2018-yildan hozirgacha bo‘lgan davr. Kompleks davlat kafolatli tizimning yaratilishi, ya’ni davlat boshqaruvining markazlashuvi, transformatsiyalanishi. 2018-yildan boshlab sohada sifat jihatidan yangi davr boshlandi. Bu davrda BHYoni davlat-boshqaruv vakolati darajasiga ko‘tarish bo‘yicha aniq qadamlar tashlandi hamda Adliya vazirligi boshqaruvchi roli va qonuniy asoslari belgilandi, ya’ni Adliya vazirligi BHYo tizimini tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy organ etib belgilandi. Prezidentning PF-5441 va PF-5415-sonli farmonlari advokatura mavqeini mustahkamlash va advokatlar mehnatiga to‘lanadigan gonorar miqdorini oshirishga zamin yaratdi [11; 12]. 2023-yil 16-iyundagi O‘RQ-848-sonli “Davlat hisobidan yuridik yordam to‘g‘risida”gi Qonun sohada katta ahamiyat kasb etdi [13].

Qonun BHYo ko‘rsatiladigan ishlar doirasini faqat jinoiy ishlardan olib chiqib, qamrovni keskin tarzda kengaytirdi va birinchi marta **fuqarolik, ma’muriy va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni** ham qamrab oldi. Shuningdek, yangi huquq subyektlari kiritilishi bilan bir qatorda BHYo oluvchilar toifasi aniq belgilandi. Jumladan, **kam ta’minlangan shaxslarga** (fuqarolik va ma’muriy ishlarda), **ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslarga** (psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganda) va **xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan fuqarolarga** bepul yordam berish kafolatlandi.

Jadval №1

Ko‘rsatkich	Eski tizim (2017-yilgacha)	Yangi tizim (2023-yildan keyin)
Qamrov sohasi	Faqat jinoyat ishlari	Jinoyat, fuqarolik, ma’muriy ishlar
Boshqaruv	Tarqoq (tergovchi/sud qarori)	Markazlashgan (Adliya vazirligi)
Subyektlar	Chegaralangan toifalar	Kam ta’minlanganlar, ayollar (gender tenglik), ruhiy xastalar

* Muallif tomonidan yuridik adabiyotlar asosida tahlil qilib tayyorlab chiqilgan.

Tizimning qamrovi kengaygani (endilikda fuqarolik va ma'muriy ishlar ham qamrab olingan) ijobiy holat bo'lsa-da, sifat masalasi ochiq qolmoqda. Akademik A.Saidov ta'kidlaganidek, "advokatlarning davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishdan manfaatdor emasligi to'lov miqdorining yetarli emasligi bilan bog'liq" [15].

Yuqorida keltirilgan mualliflar tomonidan tanqid qilingan "advokatga to'lovlarni kechiktirish va byurokratik to'siqlar" O'zbekiston tajribasidagi "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali, ya'ni advokatni avtomatik tasodifiy tanlash va to'lovlarni raqamli tasdiqlash orqali o'z yechimini topmoqda. Bu esa BHYoni klassik ma'muriy boshqaruvdan **"inson omilisiz boshqaruv" (Zero Bureaucracy) modeliga** o'tishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, 2024-yil 21-noyabrda 774-sonli Hukumat qarori bilan advokatlarni jalb etish tartibi to'liq raqamlashtirildi va advokatning ishga jalb etilishi axborot tizimi orqali **tasodifiy (avtomatik) tanlov** asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bu, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim tarixiy qadamdir. 2024-yildagi yangi tartibga ko'ra, jismoniy shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun **eksterritoriallik prinsipi** asosida (ya'ni, yashash joyidan qat'i nazar) adliya bo'limiga murojaat qilishi mumkinligini belgilab berdi [14].

Shu o'rinda, tarixiy modellarning sintezi, ushbu tarixiy tajribaning zamonaviy islohotlarga ta'siri va kelajakdagi muammolariga ham to'xtalsak.

O'zbekistondagi BHYoning zamonaviy tizimi Sovet **davrining majburiy himoyasi**, G'arbning **ijtimoiy tenglik** tamoyili va Sharqning **birlamchi maslahat** shakllarini o'zida birlashtiradi. Bunday sintez xizmatlarning kengligini ta'minlasa-da, uning sifati va advokatlarning ixtisoslashuvi darajasiga ta'sir qilishda muammolar mavjud.

Bepul huquqiy yordam ko'rsatishning sifat mezonlari tarixiy nuqtai nazardan, BHYoning asosiy muammosi – xizmat ko'rsatish sifati bo'lib qolmoqda.

Adliya organlari tizimga boshqaruvchi sifatida kirgan bo'lsa-da, resurslarni samarali taqsimlash masalasi dolzarb bo'lib turibdi. BHYoga ajratilgan davlat byudjeti mablag'larining samaradorligini faqat to'lov miqdorini oshirish bilan emas, balki xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilishning yagona boshqaruv tizimini yaratish bilan o'lchanishi kerak.

BHYoning kengayishi ijobiy bo'lsa-da, sifatni ta'minlamaydigan past gonorar muammoligi qolmoqda. Akademik A.Saidov ham BHYoning qiyinchiligi sifatida **"advokatlarning davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishdan manfaatdor emasligi bo'lib, bu to'lov miqdorining yetarli emasligi bilan bog'liq"**ligiga birinchi muammo sifatida to'xtalgan [9]. Sifatni oshirish uchun BHYo reyestri joriy etilishi, advokatlarga maxsus **ixtisoslashtirilgan kurslar** tashkil etish va ularning faoliyatiga **mustaqil baho berish** tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Darhaqiqat, BHYoni faqat miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatidan boshqarish lozim. Raqamlashtirish jarayoni, xususan, "Yuridik yordam" AT orqali advokatlarni avtomatik tanlash tizimi korrupsiyani kamaytirdi, biroq advokatning professional ixtisoslashuvini hisobga olish mexanizmi hali mukammal emas.

Shunday qilib, BHYo tizimining raqamlashtirilishi **"Yuridik yordam" axborot tizimi** orqali advokatning avtomatik tanlanishi avvalgi davrdagi **surishtiruvchi yoki tergovchining shaxsiy aloqalari** orqali advokat tayinlash amaliyotini tugatadi. Bu, inson huquqlari faollari tomonidan "adolatga erishish yo'lidagi tenglikning haqiqiy kafolati" sifatida baholanmoqda.

O'zbekistonda davlat hisobidan yuridik yordam (BHYo) tizimining rivojlanishi va institutsional islohotlar tahlili asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

– BHYo instituti faqat jinoyat protsessi bilan cheklangan "protsessual zarurat" bosqichidan, fuqarolarning barcha sohalaridagi (fuqarolik, ma'muriy) huquqlarini himoya qiluvchi "fundamental ijtimoiy-huquqiy kafolat" darajasiga ko'tarildi. Bu o'z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan "ijtimoiy davlat" tamoyilining amaliy ifodasidir.

– Sohadagi qonunchilikning takomillashtirilishi oqibatida BHYo qamrovining kengayishi adolatga erishish yo'lidagi ijtimoiy tenglikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda.

– “Yuridik yordam” axborot tizimining joriy etilishi sohada inson omilini kamaytirib, advokatlarni avtomatik tanlash mexanizmi orqali korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etdi. Bu tizim BHYoni boshqarishning markazlashgan vertikal modelini shakllantirdi.

– Tizimning istiqboldagi rivojlanishi “miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat bosqichiga o'tish”ni taqozo etadi. Bunda advokatlar mehnatini munosib rag'batlantirish, gonorarlarni miqdorini qayta ko'rib chiqish va ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifatini nazorat qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish eng dolzarb strategik vazifa hisoblanadi.

BHYoni kengaytirish – bu davlatning konstitutsiyaviy majburiyati bo'lib, uning amaliy ta'minoti esa davlat boshqaruvining samaradorligiga bog'liqdir. Sohani raqamlashtirish esa tarixiy byurokratik to'siqlarni bartaraf etib, adolatga erishish yo'lida tenglikning haqiqiy kafolatini yaratishga qaratilgan.

Sohadagi tarixiy yo'l va huquqiy asoslarni tahlil qilar ekanmiz davlat hisobidan bepul huquqiy yordam institutining tarixiy yo'li **protsessual zarurat** tizimidan, **fuqarolarning fundamental ijtimoiy-huquqiy** tizimiga o'tishni aks ettiradi. 2017-yildan keyingi islohotlar BHYoning qamrovini kengaytirdi, uning normativ bazasini mustahkamladi va xalqaro standartlarga moslashtirdi. Hozirda tizimning asosiy vazifasi – **miqdoriy kengayishdan sifat darajasiga o'tish** va tarixiy muammo bo'lgan **shaffoflik** va **adolatli to'lov** masalalarini hal qilishdan iborat.

Umumiy xulosa qilib aytganda, BHYo institutining rivojlanishi O'zbekistonning davlat huquqiy siyosatida huquqiy tenglikni ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi. Davlat boshqaruvining markazlashgan vertikaliga o'tish orqali, BHYo ijtimoiy kafolatdan zamonaviy boshqaruv mexanizmiga aylandi. BHYo tizimining institutsional takomillashuvi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bilan birga, fuqarolarning huquqiy himoyalaniish darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

IQTIBOSLAR /CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Pauper's oath (1495) // Grokipedia. – URL: https://grokipedia.com/page/Pauper's_oath
3. Fayziyev X.S. O'zbekistonda yuridik xizmat institutining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari // Yurist axborotnomasi. – 2024. – № 2. – B. 107–114.
4. Туранин В.Ю., Погорелов Д.В., Польская В.А. Бесплатная юридическая помощь: система нуждается в совершенствовании (на примере уголовного судопроизводства) // Вестник МГПУ. – 2022. – № 3 (47). – С. 70–84. DOI: 10.25688/2076-9113.2022.47.3.07
5. Khakimova K. Attorney-client privilege in the context of legal assistance: its impact on trust and effectiveness // Society and Innovations. – 2024. – Special Issue 07. – P. 44–50. DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp44-50
6. Яшина О.Н. Бесплатная юридическая помощь в России: сравнение с США // Ученые труды Российской академии адвокатуры и нотариата. – 2012. – № 1 (24). – С. 16–20.
7. Бахорина С.Э. Бесплатная юридическая помощь и юридические клиники Республики Беларусь // Юридическое клиническое образование. – 2012. – С. 272–273.
8. Бугрова В.Р., Сабурова Л.Н. Бесплатная юридическая помощь: теория и практика // Гражданско-правовое регулирование общественных отношений. – 2015. – С. 76–83. DOI: 10.12737/11710
9. Редкоус В.М. Правовое регулирование оказания бесплатной юридической помощи (опыт государств – участников СНГ) // Право и государство: теория и практика. – 2025. – № 3. – С. 172–175. DOI: 10.47643/1815-1337_2025_3_172.
10. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF–5415-son Farmoni hamda PQ–3666-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

13. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-848, 16.06.2023) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi VMQ-774-sonli "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

15. Saidov A.X. Yangi O'zbekiston va bepul yuridik yordam. // parliament.gov.uz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy saiti. – 2025.

YURIST AXBOROTNOMASI

1-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 1

LAWYER HERALD

ISSUE 1

ISSN 2181-9416

2026-YIL